

**TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.15/31.08.2022.T.73.03 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI

SARMONOV AZIZBEK XASHIMJONOVICH

**ASFALTBETON QORISHMA ISHLAB CHIQRISHDA ENERGIYA
TEJAMKOR TEXNOLOGIYANI TAKOMILLASHTIRISH**

**05.02.03 –Texnologik mashinalar. Robotlar, mexatronika va
robototexnika tizimlari**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTASIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent- 2023

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on technical sciences**

Sarmonov Azizbek Xashimjonovich

Asfaltbeton qorishma ishlab chiqarishda energiya tejamkor texnologiyani takomillashtirish..... 3

Сармонов Азизбек Хашимжонович

Совершенствование энергосберегающих технологий при приготовлении асфальтобетонных смесей 23

Sarmonov Azizbek Xashimjonovich

Improvement of energy-saving technologies in the preparation of asphalt concrete mixtures..... 43

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ 49

List of published works

**TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.15/31.08.2022.T.73.03 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI

SARMONOV AZIZBEK XASHIMJONOVICH

**ASFALTBETON QORISHMA ISHLAB CHIQRISHDA ENERGIYA
TEJAMKOR TEXNOLOGIYANI TAKOMILLASHTIRISH**

05.02.03 –Texnologik mashinalar. Robotlar, mexatronika va robototexnika tizimlari

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTASIYASI
AVTOREFERAT**

Toshkent- 2023

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.1.PhD/T1753 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat transport universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.tstu.uz) va "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portaliga ("www.ziynet.uz") joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Askarxodjayev Tulkun Ishanovich
texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Astanakulov Komil Dulliyevich
texnika fanlari doktori, professor

Axmedov Doniyor Anvarjonovich
texnika fanlari falsafa doktori (PhD),
dotsent

Yetakchi tashkilot:

Jizzax politexnika instituti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat transport universiteti huzuridagi DSc.15/31.08.2022.T.73.03 raqamli Ilmiy kengashning 2023- yil «__» _____ soat ____ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100167, Toshkent sh., Temiryo'lhilar ko'chasi 1-uy. Tel.: (99871) 299-00-01, faks: (99871) 293-57-54 e-mail: rektorat@tstu.uz, tashiit@exat.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat transport universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ ____ bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100167, Toshkent sh., Temiryo'lhilar ko'chasi 1-uy. Tel.: (99871) 299-00-01, faks: (99871) 293-57-54 e-mail: rektorat@tstu.uz, tashiit@exat.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2023- yil " ____ " _____ kuni tarqatildi.
(2023- yil «__» _____ dagi __-raqamli reyestr bayonnomasi).

A.A.Riskulov

Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi, t.f.d., professor

K.Z.Ziyayev

Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash ilmiy kotibi, PhD

Sh.P.Alimuhamedov

Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash qoshidagi
Ilmiy seminar raisi,t.f.d., professor

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda iqtisodiyot tarmoqlarini raqobatbardoshligini oshirish, energiya va resurstejamkorlik ko'rsatkichlarni yaxshilash maqsadida qurilish sohasiga resurs tejamkor texnika va texnologiyalarni joriy etishga katta ahamiyat berilmoqda. Hozirda rivojlangan xorijiy mamlakatlarda qurilish materiallarini ishlab chiqarish texnologiyalarini takomillashtirish va ko'p maqsadli mobil zavod konstruksiyalarini yaratish orqali xom ashyo materiallari resursidan foydalanish samarasini oshirishga qaratilgan masalalar yetakchi o'rinni egallagan. Bu borada, jumladan, asfaltbeton zavodi tarkibidagi uskunalar konstruksiyasini takomillashtirish, ko'p fraksiyali resurstejamkor materiallarni yaratishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Jahonda barcha toifadagi avtomobil yo'llarini turli iqlim sharoiti uchun issiq asfaltbeton qorishma ishlab chiqaruvchi zavodlar konstruktiv parametrlarini takomillashtirish va energiya tejamkor texnologiyalarni ishlab chiqirishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu yo'nalishda, jumladan, asfaltbeton zavodining quritib aralashtirish barabanining konstruktiv parametrlarini modernizatsiya qilish, energiya sarfini hisoblashda har bir (quritib-aralashtirish barabani, bitumni saqlash, uzatish va qayta ishlash) jihozlarida alohida bo'g'inli hisoblash usulini takomillashtirish, zamonaviy axborot texnologiyalarini boshqaruv tizimiga joriy etish orqali energiya harajatlarini kamaytirish va me'yorlashtirish, eng maqbul boshqaruv tizimini tanlash orqali ulardan foydalanish samaradorligini oshirish bo'yicha tadqiqotlar ustivor hisoblanmoqda. Shu bilan birga, asfaltbeton zavodining jihozlarida texnologik ish jarayonini hisoblashga mo'ljallangan quyi tizim matematik modelini takomillashtirish va inert materialni uzatish tizimlarida proporsionallikni ta'minlash dolzarb vazifalardan hisoblanmoqda.

Respublikamizda avtomobil yo'llari kengaytirish, mavjud inshootlar, yo'llar, aerodromlarni qurish, saqlash va ta'mirlash, yuqori samarali yo'l qurilish texnikalari, uskunalari asosida iqtisodiy, energetik va moddiy resurslarni tejash, texnik parametrlarini takomillashtirishga qaratilgan keng ko'lamli chora tadbirlar amalga oshirilmoqda. Buni asfaltbeton qoplamali magistral yo'llarni xizmat ko'rsatish muddatining ortishi bilan bir qatorda ushbu sohada ilmiy-tadqiqot va uslubiy ishlarni olib borishni rag'batlantiruvchi qator me'yoriy-huquqiy hujjatlarning qabul qilingani ham ko'rsatib turibdi. Jumladan, 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida "...raqamli infratuzilmani yanada rivojlantirish orqali barcha aholi maskanlarini va ijtimoiy ob'yektlarni hamda magistral avtomobil yo'llarini keng polosali ulanish tarmoqlari bilan qamrab olish ..." ¹ ustivor vazifa sifatida alohida belgilab berilgan. Mazkur vazifalarni bajarishda yo'l-qurilishda ko'p foydalaniladigan issiq asfaltbeton qorishmasi ishlab chiqarishda energiya tejamkor texnologiyani qo'llash va tadbir etish bilan bog'liq tadqiqotlar olib borish dolzarb vazifadir.

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli Farmoni "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"//O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 06/22/60/0082-son, 16-maqсад

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”² gi, farmonida yo‘l xo‘jaligiga ilg‘or texnika-texnologiyalarni joriy etish masalasi ham 2017 yil 14 fevraldagi PF-4954- son “Yo‘l xo‘jaligini boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida”³ gi, Farmonlari hamda 2018 yil 11 noyabrdagi PQ-4035-sonli “Avtomobil yo‘llarini qurish va ulardan foydalanish sohasida ishlarni tashkil etishning ilg‘or xorijiy uslublarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”⁴ gi Qarori ijrosini ta‘minlashga hamda mazkur faoliyat sohasida qabul qilingan boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi. Hozirgi kunda Respublikamizda avtomobil yo‘llari tarmog‘ini kengaytirish, mavjud inshootlar, yo‘llar, aerodromlarni saqlash va ta‘mirlash, yuqori samarali yo‘l qurilish texnikasi, uskunalari asosida moddiy, energetik va mehnat resurslarini tejash, energiya tejamkor texnologiyalarni takomillashtirish va nazariy hisoblashga qaratilgan keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining II “Energetika, energiya va resurs tejamkorlik” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jahonda issiq asfaltbeton qorishma ishlab chiqarishda sarf bo‘ladigan energiyani tarqalishi va jihozlarini uzoq muddat ishlashi, ish unumdorligini oshirishga sabab bo‘ladigan parametrlarni hisoblash jarayoni bo‘yicha tadqiqotlar jahonning yirik tadqiqotchilari Anderson-Sköld, Yvonne; Anderson, Karin; Bo, Lind; Claesson, Anna; Larsson, Lennart; Avlasova N.M., Vorobyev V.A., Kotlyarskiy E.V., Alekseyev V.M., Tixomirov V.M., Fomin C.B., V.I.Kolishev, P.P.Kostin, V.V.Silkin va boshqalar tomonidan tadqiqot ishlari olib borilgan.

Mamlakatimiz olimlaridan T.I.Askarxodjeyev, Z.T. Maksudov, A.A.Abdurazzokov va boshqalar tomonidan asfaltbeton qorishma ishlab chiqarishda ish unumdorligi yuqori va energiya sarfi kam bo‘lgan texnologiyalarni yaratish bo‘yicha ko‘plab ilmiy tadqiqotlar o‘tkazilgan va ma‘lum darajadagi ijobiy natijalarga erishilgan. Ammo tadqiqotlarda issiq asfalt qorishma ishlab chiqarishda quritish barabani, bitum tashiluvchi quvurlarida energiya sarfi va bitumni qayta ishlashda energiya xarajatlari hisoblanmagan.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, issiq asfaltbeton qorishma ishlab chiqarishda sarflanadigan yoqilg‘i miqdori yilning barcha davrida bir xil bo‘lmaydi, yani atrof-muhit haroratining o‘zgarishi yoki yomg‘ir yog‘ishi natijasida inert material namligi ortadi natijada yoqilg‘i sarfi ortadi. Hozirgi vaqtda mazkur tadqiqotlardan kelib chiqqan holda asfaltbeton zavodlarining quritib aralashtiruvchi barabanilarini takomillashtirish borasida izlanishlar olib borish dolzarb ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi. Olib borilgan avvalgi tadqiqotlarda taklif etilgan konstruktsiyalar quritib aralashtiruvchi barabani ratsional parametrlarini tanlash va tanlangan

² <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>

³ <https://lex.uz/docs/-3114302>

⁴ <https://lex.uz/docs/-4082591>

sxemalarni tahlil qilish, alohida qismlar (quritish, qizdirish va aralashtirish) uchun matematik modellar tuzish va ularni axborot texnologiyalaridan foydalanib, kompleks hisoblash usuli to'liq ishlab chiqilmagan. Issiq asfaltbeton qorishma ishlab chiqarishda yoqilg'i sarfi tarkibiga texnik jihozlar bitumni transport vositasidan tushirib olish, qayta ishlash, qizdirish, qizigan holatda saqlab turish va quritish barabanida sarf xarajatlari tarkibiga kiritilmagan. Olinadigan natijalarning ishonchligi va obyektivligini ta'minlash uchun sinovlar ekspluatatsion sharoitlarga imkon qadar yaqin sharoitlarda o'tkazilishi kerak.

Dissertasiya tadqiqotining dissertasiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertasiya tadqiqoti Toshkent avtomobil yo'llarini loyihalash, qurish va ekspluatatsiyasi institutining №177/2017 xo'jalik shartnomasi "Chori Mega Montaj" ma'sulyati cheklangan jamiyatga qarashli asfaltobeton zavodida asfaltbeton qorishmalarini tayyorlashda energiya resurslarini sarflash me'yorlari, №137/2016 xo'jalik shartnomasi «Qurilish va obodonlashtirish» unitar korxonasiga qarashli DS-508 markali asfaltbeton zavodida asfaltbeton qorishmalarini zavod sharoitida tayyorlashda energiya resurslarini sarflash me'yorlari va Avtomobil yo'llar ilmiy-tadqiqot instituti IQN 80-2012 «Asfaltbeton qorishmalarini zavod sharoitida tayyorlashda energiya resurslarini sarflash me'yorlari». DAK «Uzavtoyol», T., 2012 y., idoraviy qoida va me'yorlar doirasidagi ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi issiq asfaltbeton qorishma ishlab chiqarishda energiya tejamkor texnologiyani takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

asfaltbeton zavodlarida quritish barabaning ish jarayoni va tuzilish konstruksiyasi o'zgarishi hisobiga, energiya sarfiga ta'sir qiluvchi omillarni taxlil qilish;

issiq asfaltbeton qorishma ishlab chiqarishda quritish barabani, bitumni qayta ishlash, uzatish va qizdirilgan holatda saqlash jihozlarida energiya sarfini aniqlash uslubini ishlab chiqish;

quritish barabani ichida issiqlik tarqalishini modellashtirish va eksperimental tadqiq etish;

asfaltbeton zavodlarda energiya tejamkor quritib-aralashtirish barabanining konstruktiv parametrlarini asoslash;

quritib-aralashtirish barabanining konstruktiv parametrlarini ishlab chiqarish texnologiyasi o'zgarishi xisobiga ish unumdorligini baholash hamda iqtisodiy samarasini aniqlash va keying tadqiqotlar uchun tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning ob'yekti sifatida CHA-80 markali asfaltbeton zavodi quritib aralashtirish barabani olingan.

Tadqiqotning predmetini CHA-80 markali asfaltbeton zavodi quritib qorishma tayyorlash barabanini texnik iqtisodiy samaradorligini baholovchi ko'rsatkichlar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda nazariy va amaliy mexanika qoidalari, tizimli tahlil uslublari, matematik modellashtirish, Neuman va Dirichlet metodlari, chekli elementlar usuli shuningdek, tajribalarni rejalashtirish usullari qo'llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

energiya sarfiga ta'sir qiluvchi omillarni hisobga olgan xolda quritish barabaniga quritib-aralashtirish barabani parametrlarini asoslash orqali asfaltbeton zavodi konstruksiyasi takomillashtirilgan;

atrof-muhit harorati va inert material namligini xisobga olgan xolda bitumni qayta ishlash, uzatish va qizdirilgan xolatda saqlab turish jixozlari energiya sarfini inobatga olib, asfalt ishlab chiqarishdagi energiya sarfini aniqlash usuli ishlab chiqilgan;

quritib-aralashtirish barabanidagi issiqlik oqimini tekislikning uch o'qi bo'yicha tarqalishini Eyler usuli yordamida aniqlash matematik modeli takomillashtirilgan;

energiya sarfiga ta'sir qiluvchi omillarga asoslanib asfaltbeton zavodining ishlab chiqarish texnologik jarayoni va quritib-aralashtirish barabani geometrik parametrlari qiymatlari tizimli tahlil uslubi yordamida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Asfaltbeton zavodining konstruksiyasi o'zgarishi natijasida har bir tonna asfalt ishlab chiqarishda vaqt tejaladi natijada ish unumdorlik oshirilgan;

Atrof-muhit harorati va inert material namligini hisobga olgan xolda asfalt ishlab chiqarishdagi yenergiya sarfini aniqlash uslubi ishlab chiqilgan;

Issiq asfaltbeton qorishma ishlab chiqarishda boshqaruv tizimi avtomatlashtirilishi natijasida katta xajmdagi yoqilg'i va yuqori bosimli gaz talab etilmasligi asoslangan;

Energiya sarfiga ta'sir qiluvchi omillarga asoslanib asfaltbeton zavodining ishlab chiqarish texnologik jarayoni takomillashtirilgan;

Inert materialni 160-180 °C ga qizdirilmasdan 150-160 °C ga qizdirilish va elevatorda tashilmasligi natijasida yoqilg'i sarfi 16 % gacha tejalgan;

Qizdirish va aralashtirish jarayoni barabanda amalga oshiridishi natijasida frezalangan asfalt materialini qayta ishlash imkoniyati yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqot natijalarining ishonchliligi o'tkazilgan ilmiy va amaliy tadqiqotlar issiqlik texnikasi, matematik modellashtirish va mashinalar nazariyasi fanlarining qonun va qoidalariga asoslanganligi, zavod sharoitida o'tkazilgan tajriba ishlarida zamonaviy uslub va vositalar qo'llanilganligi, nazariy jihatdan olingan natijalarning amaliyotga joriy etilganligi hamda vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi, olib borilgan tadqiqotlar asosida ishlab chiqilgan, hisoblash dasturlari va tadqiqot ishida ishlab chiqilgan uslublar, tuzilgan algoritmlar va olingan natijalarning ishonchliligi analitik masalalar yechimi bilan solishtirish orqali izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati asfaltbeton zavodlarida quritish barabaning ish jarayoni va tuzilish konstruksiyasi o'zgarishi hisobiga, energiya sarfiga ta'sir qiluvchi omillarning bog'liqlik qonuniyatini hamda asfaltbeton zavodining quritib aralashtiruvchi barabanida uch o'q bo'yicha issiqlik tarqalishi MATLAB dasturiy kompleksida hisoblashning matematik modellari ishlab chiqilganligi, shuningdek, quritib-aralashtirish barabanining konstruktiv parametrlarini ishlab chiqarish texnologiyasi o'zgarishi xisobiga asfaltbeton

zavodlarda energiya tejamkor quritib-aralashtirish barabanining konstruktiv parametrlari asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati quritish barabani, ikki texnologik jarayonni bajarib quritib-aralashtirish vazifasini bajaradigan baraban konstruksiyasini ishlab chiqish va amaliyotga tadbiq etishdan iborat. Boshqaruv tizimi avtomatlashtiriladi ya'ni inert materialni uzatish va bitum uzatish tizimi issiq asfalt xaroratiga bog'liq ravishda boshqarilishi zavod ish unumdorligini oshiradi, bu esa o'z navbatida issiq asfalt qorishma tannarxini sezilarli kamaytirish imkonini berishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Issiq asfaltbeton qorishma ishlab chiqarishda energiya tejamkor texnologiyalarni yaratish va qo'llash bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijalari asosida:

energiya sarfiga ta'sir qiluvchi omillarni hisobga olgan holda takomillashtirilgan asfaltbeton zavodi konstruksiyasi Chori Mega Montaj MCHJ ishlab chiqarish jarayoniga tadbiq etilgan. (Chori Mega Montaj MCHJ ning 2020 yil 10 noyabrdagi dalolatnomasi). Natijada issiq asfaltbeton qorishma ishlab chiqarishda energiya tejamkorlikka va ish unumdorlik 20 % ortishiga erishildi.

atrof-muhit harorati va inert materiallar namligi inobatga oluvchi energiya sarfini aniqlash uslubi Avtomobil yo'llari qo'mitasida IQN 80-2012 me'yoriy hujjatiga joriy etilgan (Avtomobil yo'llari qo'mitasining 2023 yil 13 fevraldagi №02-636 son malumotnomasi). Natijada, turli iqlim sharoitlari uchun asfaltbeton zavodlarining yonilg'i sarfi me'yorini aniqlash imkoni yaratilgan.

asfaltbeton zavodining ishlab chiqarish texnologik jarayoni va quritib-aralashtirish barabani geometrik parametrlari qiymatlari Chori Mega Montaj MCHJ da tadbiq etilgan (Avtomobil yo'llari qo'mitasining 2023 yil 13 fevraldagi №02-636 son malumotnomasi). Natijada, quritib-aralashtirish barabanidagi yonilg'i sarfi 16 % gacha tejalishiga olib kelgan.

Tadqiqot natijalarining aprobeasiyasi. Tadqiqotning natijalari 2 ta xalqaro, 4 ta respublika va 3 ta oliy o'quv yurtlariaro ilmiy-amaliy anjumanlarda qilingan ma'ruzalarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 18 ta ilmiy ish chop etilgan. Shulardan, 6 ta ilmiy maqola O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda, shu jumladan 4 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertasiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 93 betni tashkil etadi.

DISSERTASIYANING ASOSIY MAZMUNI


Kirish qismida o'tkazilgan tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqot maqsadi va vazifalari shakllangan, ob'yekti va predmetlari tavsiflangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va asosiy natijalari bayon qilingan, tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan,

olingan natijalarning ishonchligi asoslangan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish va aprobasiyasi, shuningdek, nashr etilgan ishlar va dissertasiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertasiyaning **“Muammoning qo'yilishi. asfaltbeton qorishmalarini ishlab chiqaruvchi zavodlar tahlili”** deb nomlangan birinchi bobida mavjud asfaltbeton zavodlarining konstruksiyalari, quritib aralashtiruvchi baraban va ularning turlari, asfaltbeton korishma ishlab chikarishda yonilgi sarf me'yorlarining tasnifi va tarkibi, ish unumdorligi va ishlash sharoiti har xil bo'lgan asfaltbeton zavodlari bilan tanishish va ularga qo'yilgan talablar; turli davlatlarda ishlab chiqarilgan zavodlar va ularni ishlash prinsipi masalalariga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlarning chuqur tahlili ko'rsatilgan.

Asfaltbeton zavodlari asosan to'xtovsiz ishlash xususiyatiga ega bo'lib, natijada yuqori ish unumdorlikga va energiya tejamkorligiga erishish mumkin. To'xtovsiz ishlaganda zavodning barcha agregatlari bir-birini to'ldiruvchi vazifasini bajaradi, chunki inert materialni dozalab quritib-aralashtiruvchi barabanga uzatadi, elevator orqali aralashtirgichga uzatiladi va aralashtirgichda issiq inert material, bog'lovchi vazifasini bajaruvchi bitum va mineral kukun qizdirilgan holda aralashtiriladi.

Quritish barabanida mineral materiallarni kuritish jarayoni uch bosqichga ajratish mumkin. Ular material va namni qizdirish, materialni quritish (namni bug'latib yuborish), quritilgan materialni ishchi haroratigacha qizdirish. Shunga binoan quritish barabani uchta texnologik xududga bo'linadi.




1-rasm. Quritish barabanini

Boshqa zavodlardan asosiy farqi quritib aralashtiruvchi koaksial baraban termos shaklidagi ikkita barabandan iborat. Ikkinchi baraban bilan birinchi baraban o'rtasida qizdirilgan tosh materiallari, bitum va mineral kukun birgalikda aralashtiriladi.



2-rasm. “DOUBLE BARREL” tipidagi quritib aralashtiruvchi baraban

Qizdirilgan materiallarni yoki tayyor maxsulotni haroratini o‘lchashda IK-datchik (pirometr) dan foydalaniladi. Pirometrlar masofadan turib istalgan haroratni o‘lchash qobilyatiga ega. Biz taklif qilayotgan gorelka universal bo‘lib gaz, mozut va dizel yoqilg‘isidan foydalanish mumkin. 1 t asfalt ishlab chiqarish uchun 5-6 l yoqilg‘i sarflanadi bunda, quyidagi shartlarni inobatga olishimiz kerak: (namlik 4-5 %), agar xarorat pastroq (100°C kam bo‘lganda) bo‘lsa 7,5 l gacha sarflanishi mumkin.




3-rasm. Quritish barabanini xududlardagi plastinkalar ko‘rinishi

Hozirgi kunda mavjud asfaltbeton zavodlarining aksariyatida mikroprocessor boshqaruv sistemalari qorishma tayorlash bo‘yicha texnologik jarayonlarni hammasini uzluksiz rejimda nazorat qilish imkonini beradi, qorishmaning boshqa turlarini ishlab chiqarishga tez moslasha oladi. Asfaltbeton zavodlarning bloklardan iborat konstruksiyasi qisqa muddatda montaj qilish imkonini beradi. Qism va agregatlarining gabarit o‘lchamlari avtomobil va temir yo‘l transportida tashishga mos, boshqaruv pultlari mikroprocessorlar bilan jihozlangan, buyurtmachiga to‘la o‘rnatilgan holda yetib boradi, dunyoning yirik kompaniyalari o‘z tadqiqotlarida ko‘proq ahamiyat beradi.

Issiq asfalt qorishma ishlab chiqarishda sarflanayotgan energiya manbalaridan foydalanishda tejamkorlikka erishish masalalari, dunyoning rivojlangan davlatlarida ishlab chiqarilgan asfalt zavodlari taxlili va ularda yoqilg'i sarfini aniqlash metodikalari taxlil qilingan.

Dissertasiyaning **“Quritib aralashtiruvchi baraban asosiy konstruksiyasi va texnologik parametrlarini tanlash hamda hisoblash”** deb nomlangan ikkinchi bobida quritib aralashtiruvchi barabanda issiqlik oqimini matmematik modellashtiri, quritish barabanidagi issiqlik tarqalishini MATLAB/Simulink kompleksida modellashtirish va Asfaltbeton qorishmalari uchun yoqilg'i sarfini hisoblash metodikasi ishlab chiqilgan.

Quritib-aralashtirish barabanidagi masala xaqiqiy jarayonni yetarlicha aniqlik bilan matematik munosabatlar orqali ifodalash mumkin bo'lsa, bu masalani matematik model qurish yordamida yechish mumkin bo'ladi. Masalani bu usulda yechish matematik modellashtirish jarayoni deb ataladi. Biz birinchi navbatda quritish barabanida issiqlik oqimi bo'yicha matematik ifodani taxlilini ko'rib chiqamiz.



4-rasm. Quritish barabanidagi issiqlik oqimini sxematik ko'rinishi

Bunda radiusi R bo'lgan barabandan o'zgarmas ϑ tezlik bilan issiq xavo oqimi oqmoqda (1-rasm). Tashqaridagi tashqi harorat o'zgarmas, baraban ichidagi haroratdan ancha past. Ma'lumki, bu issiq xavo oqiminingning temperaturasini isitishga xizmat qiladi. Bu yerda $T(z, t)$ – vaqt birligi ichidagi temperaturaning o'zgarishi.

Tashqariga sarf bo'ladigan issiqlik energiyasi esa quyidagicha:

$$Q_s = k\Delta TS, \quad (1)$$

Bu yerda, k - baraban devorining issiqlik o'tkazuvchanlik koeffitsiyenti, $\Delta T = T - T_{tas\ \square\ qi}$, ichki va tashqi temperatura farqi, S – baraban to'la sirtining yuzasi;

Shuningdek issiqlik miqdorining muvozanat tenglamasi quyidagicha:

$$\frac{d}{dt} \int_z^{z+\delta z} T(z, t) \rho c \pi R^2 \delta z = q(z, t) \pi R^2 - q(z + \delta z, t) \pi R^2 - k(T - T_{tas\ \square\ qi}) 2\pi R \delta z \quad (2)$$

Agar $\delta z \rightarrow 0$ ga intilsa, u holda tenglama quyidagicha bo'ladi:

$$\rho c \frac{dT}{dt} = - \frac{dq}{dz} - \frac{2k}{R} (T - T_{tas\ \square\ qi}) ; \quad (3)$$

Agar issiqlik miqdorini (q) temperaturaga (T) bog'liqlik tenglamasi orqali matematik ifodalay olsak, ya'ni issiqlikning tarqalishi konveksiya va diffuziya orqali hosil bo'lishi:

$$q = \nu \rho c T - \alpha \frac{dT}{dz} ; \quad (4)$$

Bu yerda (3) ifodaga (4) ifodani qo'syak, issiqlik oqimining z o'qi bo'yicha o'zgarish xususiy xosilali diferensial tenglamasini hosil qilamiz:

$$\rho c \frac{dT}{dt} + \nu \rho c \frac{dT}{dz} = \alpha \frac{d^2 T}{dz^2} + \frac{2k}{R} (T - T_{tas\ \square\ qi}) ; \quad (5)$$

bu yerda:

R- baraban radiusi,

ρ - baraban ichidagi material zichligi,

c - moddaning issiqlik sig'imi,

ν - inert material tezligi, ; α - diffuziya koeffitsiyenti,

Agar barabandagi havoning tarqalishida diffuziya sodir bo'lmaydi deb (5) tenglamani soddalashtirilsa, u holda quyidagi tenglama ko'rinishida bo'ladi:

$$\rho c \frac{dT}{dt} + \nu \rho c \frac{dT}{dz} + \frac{2k}{R} (T - T_{tas\ \square\ qi}) = 0 \quad (6)$$

Matematik modellashtirish oqali quritib-aralashtirish barabanida sarf bo'ladigan energiyaga ta'sir qiluvchi faktorlarni xammasini ta'sirini ko'rish imkoniyati yo'q. Shuning uchun ko'rilayotgan masala orqali issiqlik tarqalishini uch o'q bo'yicha emas, soddaroq ko'rinishga keltirish uchun bir o'q orqali tarqalishini tahlil qilib o'rgandik.

Boshlang'ich shartida quritish barabanidagi havo oqimi temperaturasi va tashqi muxit xaroratii bir xil bo'ladi. Biroq qisqa vaqt mobaynida baraban ichidagi harorat maksimal qiymatga erishadi

$$\frac{\partial T}{\partial z} + \frac{1}{\nu} \frac{\partial T}{\partial t} + k(T - T_{tashqi}) = 0 , \quad 0 \leq z \leq \quad (7)$$

Bu yerda $k = \frac{2K}{\rho \nu c R}$ ga teng

Yuqorida keltirilgan (7) differensial tenglamani, Eyley usulidan foydalanib, quyidagi (8) ifodani keltirib olamiz:

$$\frac{\partial T_i}{\partial t} = -\left(\frac{\nu}{h} + k\right) T_i + \frac{\nu T_{i-1}}{h} + \nu k T_{tashqi} \quad (8)$$


Bu matematik ifodani, chekli ayirmalar usulidan foydalangan holda, N ta bo'laklarga ajratilgan ko'rinishda ifodalaymiz, ya'ni:

$$\begin{array}{l}
 i=1 \quad \frac{\partial T_1}{\partial t} = -\left(\frac{v}{h} + k\right)T_1 + \frac{vT_0}{h} + kT_{tashqi} \\
 i=2 \quad \frac{\partial T_2}{\partial t} = -\left(\frac{v}{h} + k\right)T_2 + \frac{vT_1}{h} + kT_{tashqi} \\
 i=3 \quad \frac{\partial T_3}{\partial t} = -\left(\frac{v}{h} + k\right)T_3 + \frac{vT_2}{h} + kT_{tashqi} \\
 \cdot \quad \cdot \quad \cdot \quad \cdot \\
 \cdot \quad \cdot \quad \cdot \quad \cdot \\
 i=N \quad \frac{\partial T_N}{\partial t} = -\left(\frac{v}{h} + k\right)T_N + \frac{vT_{N-1}}{h} + kT_{tashqi}
 \end{array} \quad (9)$$

(9) tenglamalar sistemasini matrisa ko‘rinishida ifodalab, uni quyidagi belgilashlar orqali ifodalaymiz, ya’ni:

$$\frac{dT}{dt} = AT + b \quad (10)$$

tenglamaning sonli yechimlarini olish uchun Matlab®/Simulink® dasturiy kompleksidagi *Gain*, *Constant*, *Integrator*, *Sum* va *Scope* bloklaridan foydalanib uning modelini yaratamiz.




5-rasm. Quritish barabanini Matlab/Simulink dasturiy kompleksida temperatura o‘zgarishini hisoblash modeli

Bu yerda Gain bloki ichidagi K, A matrisani va U esa temperaturani bildiradi.


Energiya sarfi miqdorini aniqlashda imitasion modellardan foydalanib bir nechta holatlarni o‘rganib chiqish mumkin.

Dissertasiyaning “**Eksperimentlar va tahlillar**” nomli uchinchi bobida Asfaltbeton zavodining quritib aralashtiruvchi barabanidagi issiqlik oqimini MATLAB/Simulink kompleksida modellari orqali sonli yechimlari olingan.


Asfaltbeton zavodining quritib aralashtiruvchi barabanidagi issiqlik oqimini MATLAB kompleksini pdeool bo‘limidagi yaratilgan model orqali issiqlik o‘tkazish jarayoni issiqlik o‘tkazuvchanligi 0,4; 0,8; 1,2; 1,4 ga teng bo‘lgan hollarda ko‘rib chiqamiz .




A-rasm



B-rasm



C-rasm



D-rasm

6-rasm. Barabandagi issiqlik oqimini tarqalishi uch o'lchovli ko'rinishi

Bu yerda:

A-rasmda $K=1,4$ ga teng

B-rasmda $K=1,2$ ga teng


C-rasmda $K=0,8$ ga teng

D-rasmda $K=0,4$ ga teng

Bu olingan sonli yechimlarni grafigi orqali temperatura tarqalish jarayonini xatoliklari va polinomial tenglamalari keltirib chiqarilgan. Asfaltbeton zavodining quritib aralashtiruvchi barabanida bir tonna asfaltbeton qorishmasini tayorlashda quritib aralashtiruvchi barabanga ketadigan energiya miqdori va energaya sarfini hisoblash metodikasi yoritilgan;

Quritish-aralashtirish barabani modelini kompyuter simulyatsiyasi natijasi:


Hisoblash boshlangandan va bir nechta takrorlash tugagandan so'ng yechim asboblar panelidagi to'xtatib turish tugmasi bosiladi. Agar berilgan masala murakkab bo'lsa kuzatuv panellari orqali nazorat qilib turish imkonini beradi. Natijalarni kuzatuv panellari orqali uch o'lchamli modelida kechayotgan jarayonni kuzatib turish imkoniyatiga egamiz.



7-rasm. Quritish barabanida issiqlik tarqalishi boshlanishi


Ko‘rib chiqish natijalarni hisoblash paytida ishlayotganda ko‘rib chiqish imkonini beradi. Bu esa chegaraviy shartlarini to‘g‘ri o‘rnatilganligini aniqlashga yordam beradi va foydalanuvchilarga dastlabki bosqichda ham yechim qanday ko‘rinishi haqida ma‘lumot beradi. Ishning boshida natijalar boshqacharoq ko‘rinishi yoki o‘zgarishi mumkin. Lekin ishlash davomida o‘zgarishlar kamayadi va natijalar birlashtirilgan yechimga asoslanadi.

Oqim trayektoriyalarini aniq tasvirlarda ko‘rishimiz mumkin. Oqim trayektoriyalari uch o‘lchamli gaz oqimining juda yaxshi tasvirini beradi. Ma‘lumotlarni Excel ga export qilish orqali parametrlarni har bir trayektoriya bo‘ylab qanday o‘zgarishini ham ko‘rishimiz mumkin. Bundan tashqari natijalarni SolidWorks mos yozuvlarni egri chiziqlari sifatida saqlashimiz mumkin.




8-rasm. SolidWorks dasturida yuqori bosimli gaz alangasi harakati.

Berilgan shartlar va vazifa bo‘yicha yechimi vizual kuzatuvlardan tashqari grafik ko‘rinishda ham olish mumkin.



9-rasm. Issiqlik o'tkazuvchanlik grafigi



10-rasm. Maxsus issiqlik nisbati

Solid Works dasturiy kompleksida kompyuter simulyatsiyasi yordamida quritib-aralashtirish barabani ichidagi issiqlik tarqalishi va baraban issiqlik o'tkazuvchanlik bo'yicha grafik ma'lumotlari keltirilgan. Shuningdek: SolidWorks dasturiy ta'minot to'plamining Flow Simulation bo'limida issiqlik taqsimotini tahlil qilish orqali olingan.


Avvalombor sinovlarni olib borish uchun biz taklif qilgan energiya tejankor texnologiyada asosiy energiya sarf bo'ladigan quritish barabani sarflanayotgan energiyani manbalarini ko'rib chiqamiz.



11-rasm. Issiq asfaltbeton qorishma ishlab chiqarishda energiya sarfi

- **Inert materialni quritish va qizdirishda energiya sarfi**—quritish barabanini qizdirish, inert materialni quritish va qizdirishga sarf boʻladigan energiya .
- **Baraban devorlari orqali atrof-muhitga issiqlik energiyasini yoʻqotilishi sarfi**-quritish barabani devorlari orqali tashqi muhitga issiqlikni tarqalishi.
- **Baraban moʻrisidan chiqib ketayotgan gazlar bilan birgalikda issiqlikning yoʻqotilishi** –Baraban moʻrisidan chiqib ketayotgan gazlar bilan birgalikda issiqlikning yoʻqotilishi (mexanik va kimyoviy toʻla yonmaslikni xisobga olgan holda);
- **Bitumni qizdirish va tayyorlash uchun energiya sarfi** – bitumni qizdirish, tashish va tushirishda sarf boʻladigan energiya


Bu tizimdan koʻrinib turibdiki quritib-aralashtirish barabani devorlaridan issiqlik energiyasini atrof muhitga tarqalishi va baraban moʻrisidan issiqlikni tashqi muhitga chiqib ketishi salbiy natijalarini bartaraf qilish orqali energiya tejamlorlikka erishamiz. Bunda xaroratni oʻlchash qurilmalarimiz quritib aralashtirish barabanining quyidagi nuqtalariga oʻrnatiladi.



12-rasm. Quritish barabaniga oʻlchov qurilmalari oʻrnatish nuqtalari

1-jadval

№	Nomi	1-nuqtada	2-nuqtada	3-nuqtada	4-nuqtada	5-nuqtada
1	Baraban ichidagi xarorat °C	780	475	315	175	170
2	Inert material xarorati °C	20	100	150	150	-



13-rasm. Quritish barabani ichidagi haroratni o'zgarishi

Dissertasiyaning “**Taklif qilingan texnologiyani texnik va iqtisodiy samaradorlik**” nomli to‘rtinchi bobi tadqiqot natijalari va ularni tahlil qilish, sinovdan o‘tkazish, amalga oshirish va texnik-iqtisodiy samaradorlikni baholashga bag‘ishlangan. Biz taklif qilgan texnologiyani tarkibiy qismlari, boshqa mavjud texnologiyalardan farqi keltirilgan

Bir tonna inert materialni (qum va shag‘al) boshlang‘ich temperaturasi ish temperaturasigacha qizdirish uchun zarur bo‘lgan to‘liq issiqlik sarfi

$$E_{\varepsilon} = E_{um} + E_5 + E_6 + E_7 = 169,4 + 176,6 + 16,9 + 1,45 = 364 \text{ MJ/t} \quad (11)$$

$$4.2.12. \text{ Gaz miqdori} \quad B = \frac{E_{\varepsilon}}{q_{gaz}} = \frac{364}{34,2} = 10,6 \text{ m}^3 \quad (12)$$

$$\text{Mazut miqdori} \quad B = \frac{E_{\varepsilon}}{q_{mazut}} = \frac{364}{40} = 9,1 \text{ kg} \quad (13)$$

bu yerda: q —1 kg (m^3) yonilg‘ining barabanda yonishdan chiqqan issiqlik miqdori;

1 kg mazut yonishidan 9590 kcal yoki 40 MJ energiya ajralib chiqadi;

1 m^3 gazni yonishdan 8190 kcal yoki 34,2 MJ energiya ajralib chiqadi;

bir tonna bitum uchun keltirilgan xolatda yonilg‘i gaz sarfi m^3 quyidagi formula bo‘yicha aniqlanadi:

$$A_{gaz} = (T_1 + T_2 + T_3 + T_4 + T_5 + T_6 + T_7)/q_{gaz} = (43.45 + 289.96 + 197.27 + 131.8 + 352 + 0.033 + 1.23)/34.3 = 29.6 \text{ m}^3/t$$

bir tonna bitum uchun keltirilgan xolat uchun mazut sarfi

$$A_{mazut} = (T_1 + T_2 + T_3 + T_4 + T_5 + T_6 + T_7)/q_{mazut} = (43.45 + 289.96 + 197.27 + 131.8 + 352 + 0.033 + 1.23)/40 = 25.39 \text{ kg /t}$$


Bir tonna inert materialni (qum va shag'al) boshlang'ich temperaturasi ish temperaturasigacha qizdirish uchun zarur bo'lgan to'liq issiqlik sarfi -

$$B = \frac{E_{\varepsilon}}{q_{gaz}} = \frac{364}{34.2} = 10,6 \quad \text{m}^3$$

Bir tonna asfaltbeton qorishma tarkibida 60 kg gacha bitum bo'lishini xisobga olganda uning xisobiga to'g'ri keluvchi bitumga sarflanadigan gaz xajmi 1.776 m³ ni tashkil etadi.

Xisob natijalarini umumlashtirilganda bir tonna asfaltbeton qorishma tayorlash uchun 12,37 m³ gaz sarflanadi.

Asfaltbeton zavodi konstruksiyasi o'zgarigandan keyin bir tonna issiq asphalt ishlab chiqarishda inert material namligiga bog'liq xolatda nazariy xisob va experiment natijalari tahlili o'tkazildi olingan natija quyidagicha:



2-jadval

Havo harorati o'zgarishi xisobiga issiq asphalt ishlab chiqarishda nazariy xisob va experiment natijalari

Ko'rsatkichlar	Havo harorati, °C				
	+20°C	+25°C	+30°C	+35°C	+40°C
Inert material namligi 2,5 %					
Yoqilg'i sarfi (experiment)	12,74	12,66	12,54	12,42	12,3
Yoqilg'i sarfi (xisob yo'li bilan)	12,37	12,28	12,14	12,04	11,92
Natijadagi xatolik, %	2,9	2,96	3,14	3,02	3,05

Yoqilg'i sarfining nazariy va eksperimental qiymatlari natijalarini taqqoslash shuni ko'rsatadiki, eksperimental va nazariy ma'lumotlar o'rtasidagi farq minimal va 2,9 dan 3,14% gacha.

Shunday qilib, nazariy va eksperimental tadqiqotlar natijalarini taqqoslash ularning ishonchliligini tasdiqlaydi.

Zavodning avvalgi xolatida gaz sarfi 14 m³ tashkil qilganini inobatga olsak 1 tonna issiq asfalt ishlab chiqarish uchun 1,63 m³ iqtisod qilinsa bir zavod uchun yillik iqtisodiy samaradorlik 143440000 so'mni tashkil qiladi.

XULOSA

“Asfaltbeton qorishma ishlab chiqarishda energiya tejamkor texnologiyani takomillashtirish” mavusidagi texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (RhD) dissertasiyasi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar asosida quyidagi xulosalar taqdim etildi:

1. Issiq asfaltbeton qorishma ishlab chiqarishda sarf bo'ladigan energiya manbalari taxlil qilindi va bitumni sistemadan to'kib olish, bitum tarkibidagi namlikni bug'lantirish, inert material bilan aralashtirish nuqtasigacha tashish, ishchi xaroratda ushlab turish va quritish barabanida inert materialni qizdirishni xisobga olgan xolda energiya sarfini aniqlash uslubi ishlab chiqilgan.

2. Boshqaruv tizimi avtomatlashtirildi ya'ni inert materialni uzatish va bitum uzatish tizimi issiq asfalt haroratiga bog'liq ravishda boshqariladi. Eksperimental tadqiqot natijalari asosida boshqaruv dasturi ishlab chiqildi. Boshqaruv dasturiga ko'ra gaz bosimi tushishi sababli inert material uzatish kamayadi, natijada inert material va bitum uzatish ham bir-biriga bog'liq xolda boshqariladi, lekin ish jarayoni to'xtatilmaydi.

3. Issiq asfaltbeton qorishma ishlab chiqarishda zavodning konstruksiyasi o'zgarishi hisobiga energiya sarfi kamaydi. Inert materialni 160-180 °C ga qizdirilmasdan 150 °C ga qizdirilish natijasida yoqilg'i sarfi 10 % gacha va elevatorda tashilmasligi sababli 6 % gacha tejaladi;

4. Asfaltbeton zavodining quritib aralashtiruvchi barabanidagi issiqlik oqimining uch o'q bo'yicha tarqalishning matematik va MATLAB/Simulink kompleksida kompyuter modellari takomillashtirildi.

5. Asfaltbeton zavodlarda energiya tejamkor quritib-aralashtirish barabanining geometrik parametrlari asoslandi. Quritish barabani uzunligi 10 metrdan 12,5 metrga o'zgartirildi natijada qizigan inert material bitum bilan aralashtirish jarayoni ham barabanga o'tkazildi.

6. IQN 80-2012. «Asfaltbeton qorishmalarini zavod sharoitida tayyorlashda energiya resurslarini sarflash me'yorlari». Avtomobil yo'llar ilmiy-tadqiqot instituti DAK «Uzavtoyol», idoraviy qoida va me'yor ishlab chiqilgan.

7. Quritib-aralashtirish barabanining konstruktiv parametrlarini ishlab chiqarish texnologiyasi o'zgarishi xisobiga ish unumdorligini ortishi hamda asfalt ishlab chiqarish texnologiyasini o'zgartirish xisobiga bir zavod uchun yillik 143440000 so'mni tashkil qiladi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ
DSc.15/31.08.2022.Т.73.03 ПРИ ТАШКЕНТСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ ТРАНСПОРТНОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

**ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ТРАНСПОРТНЫЙ
УНИВЕРСИТЕТ**

САРМОНОВ АЗИЗБЕК ХАШИМЖАНОВИЧ

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ЭНЕРГОСБЕРЕЖАЮЩИХ ТЕХНОЛОГИЙ ПРИ
ПРОИЗВОДСТВЕ АСФАЛЬТОБЕТОННА СМЕСЕЙ**

**05.02.03 – Технологические машины. Роботы, мехатроника и робототехнические
системы**

**АВТОРЕФЕРАТ ДОКТОРСКОЙ ДИССЕРТАЦИИ ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО
ТЕХНИЧЕСКИМ ДИСЦИПЛИНАМ**

ТАШКЕНТ-2023

Тема диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инновации Республики Узбекистан за номером B2023.1.PhD/T1753.

Диссертация выполнена в Ташкентском государственном транспортном университете.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.tstu.uz) и Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» («www.ziyo.net»).

Научный руководитель:

Аскарходжаев Тулкун Ишанович
доктор технических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Астанакулов Комил Дуллиевич
доктор технических наук, профессор

Ахмедов Дониер Анваржонович
доктор философии (PhD), по техническим наукам, доцент

Ведущая организация:

Джизакский политехнический институт

Защита диссертации состоится « ____ » _____ 2023 года в ____ часов на заседании Научного совета DSc.15/31.08.2022.T.73.03 при Ташкентском государственном транспортном университете (Адрес: 100167, г. Ташкент, улица Темирийулчилар, 1. Тел.: (99871) 299-00-01, факс: (99871) 293-57-54 e-mail: rectorat@tstu.uz, tashiit@exat.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного транспортного университета (зарегистрирована под номером ____). (Адрес: 100167, г. Ташкент, улица Темирийулчилар, 1. Тел.: (99871) 299-00-01, факс: (99871) 293-57-54 e-mail: rectorat@tstu.uz, tashiit@exat.uz).

Автореферат диссертации разослан « ____ » _____ 2023 года.
(реестр Протокола рассылки № ____ от « ____ » _____ 2023 года).

А.А.Рискулов

Председатель Научного совета по
присуждению учёных степеней, д.т.н., профессор

К.З.Зияев

Ученый секретарь Научного совета по
присуждению учёных степеней, PhD

Ш.П. Алимухамедов

Председатель Научного семинара при Научном
совете по присуждению учёных степеней,
д.т.н., профессор

Введение (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В целях повышения конкурентоспособности в мире отраслей экономики, улучшения показателей энерго- и ресурсосбережения большое значение придается внедрению ресурсосберегающих техники и технологий в строительной отрасли. В настоящее время в развитых зарубежных странах ведущее место занимают вопросы, направленные на совершенствование технологий производства строительных материалов и повышение эффективности использования сырьевых ресурсов за счет создания многоцелевых передвижных заводских сооружений. В связи с этим особое внимание уделяется совершенствованию конструкции оборудования асфальтобетонного завода и созданию многофракционных ресурсосберегающих материалов.

Большое значение имеет проведение научно-исследовательских и опытно-конструкторских работ, направленных на улучшение конструктивных параметров заводов по производству горячей асфальтобетонной смеси для всех типов автомобильных дорог мира в разных климатических условиях и разработку энергосберегающих технологий. В этом направлении в систему управления внедряется современные информационные технологии, в том числе, модернизация конструктивных параметров сушильно-смесительного барабана асфальтобетонного завода, совершенствование методики раздельного расчета каждого (сушильно-смесительного барабана, битумохранилища, подача и переработка) оборудования, расчет энергопотребления. Приоритетными считаются исследования по снижению и нормированию затрат на энергоносителях путем введения их в систему управления, повышая их эффективность за счет выбора наиболее оптимальной системы управления. При этом актуальными задачами считаются совершенствование математической модели подсистемы, предназначенной для расчета технологического процесса работы оборудования асфальтобетонного завода и обеспечения пропорциональности в системах транспортировки инертных материалов.

В республике осуществляются ширококомасштабные мероприятия, направленные на расширение автомобильных дорог, строительство, содержание и ремонт существующих сооружений, дорог, аэродромов, экономию экономических, энергетических и материальных ресурсов, улучшение технических параметров на основе высокоэффективной дорожно-строительной техники, оборудования. Об этом свидетельствует увеличение срока службы асфальтобетонных автомобильных дорог, а также принятие ряда нормативных и правовых документов, стимулирующих проведение научно-исследовательских и методических работ в этой области. В частности в Указе Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года № ПФ-60 о новой стратегии развития Узбекистана на 2022-2026 годы "...отмечается покрытие автомобильными дорогами всех населенных пунктов и социальных объектов, а также автомагистралей сетями широкополосного доступа за счёт

дальнейшего развития цифровой инфраструктуры..."¹ определяется приоритетная задача

Правительства, в частности ПФ-4954 "О мерах по дальнейшему совершенствованию системы управления дорожным хозяйством"² и О мерах по внедрению передовых зарубежных методов организации работ в области строительства и эксплуатации автомобильных дорог"³ от 11 ноября 2018 года № ПП-4035 и других нормативных актах отмечается "...необходимость в экономической целесообразности и обоснованности потребления эксплуатационных материалов при применения различных технологических процессов и расхода энергоресурсов при получения дорожных покрытий"⁴. Указанной проблеме посвящены труды ряда исследователей, однако в этих работах не нашли отражение вопросы связанные с возможностью снижения энергопотребления при приготовлении асфальтобетонной смеси за счёт совершенствования технологического процесса.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данное исследование выполнено в рамках второго приоритетного направления развития науки и техники Республики «Энергетика, энерго и ресурсосбережение».

Степень изученности проблемы. Исследования по технологическому процессу и его расчета параметров, обуславливающих многолетнюю работу оборудования используемого при производстве горячей асфальтобетонной смеси, проводят ведущие мировые исследователями Anderson-Sköld, Yvonne; Anderson, Karin; Bo, Lind; Claesson, Anna; Larsson, Lennart; Авласова Н.М., Воробьев В.А., Котлярский Е.В., Алексеев В.М., Тихомиров В.М., Фомин С.Б., Колышев В.И., Костин П.П., Силкин В.В. и др. проводили исследования.

Отечественные учёные Т.И.Аскарходжаев, З.Т. Максудов, А.Абдураззаков и др. участвовали в разработках энергосберегающих и высоко производительных технологиях производства асфальтобетонных смесей. Однако в перечисленных трудах исследователей не рассмотрены вопросы связанные с потерей температуры нагретой массы влажности инертного материала и горячей асфальтобетонной смеси в процессе его перемещения, согласно технологического цикла, а также влияние изменения температуры окружающей среды на процесс энергопотребления единицы количество готового асфальтобетона.

Анализ работ указанных авторов показал, что количество расходуемого топлива при производстве горячей асфальтобетонной смеси переменчиво во все периоды года, то есть в результате изменения температуры окружающей среды или при атмосферных изменениях влажность инертного материала изменяется, что приводит к увеличению или уменьшению расхода топлива в

